

# Usmonxo'ja Po'latxo'jayeving Ma'naviy Xazinasining Turkiston Va Buxoro Tarixini O'rganishdagi Ahamiyati

*Tursunboyev Azizbek Avazbek Og'li<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Turkiston mustaqilligi uchun umrining oxirigacha kurash olib brogan ma'rifatparvarlardan biri bo'lgan Usmonxo'ja Po'latxo'jayeving hayoti va faoliyatining, maorif sohasidagi amaliy ishlarining ahamiyati maqolada batafsil ko'rib chiqildi. Milliy matbuotning xalq orasida tutgan o'rni masalasiga ham alohida ahamiyat berildi.

**Kalit so'zlar:** "Turkistonda milliy mujodala", "Jallodlar provokatsiyasi", "barakzoilar" hukmronligi, "Habibiya", "Harbiya", "Tizgin talash", "Hukumat nashri", "Turkiston turk genchleri".

Usmonxo'ja Po'latxo'jayeving tashabbusi va ta'sischi ostida nashr etilgan "Yeni Turkiston" ("Yangi Turkiston") jurnalining birinchi soni 1927- yil 5-iyulda dunyo yuzini ko'rgan. Jurnalning titul qismida "Yangi Turkiston" Turkiston Milliy Komiteti (TMK) "matbuot" organi ekanligi, tahririyat manzili Turkiyada, jurnal 160-raqam bilan ro'yxatdan o'tganligi, olti oylik obuna narxi -920 kurush bo'lib, bitta nusxasi 15 kurushga baholanganligi yozib qo'yilgan. Titulning ikkinchi betida "Yangi Turkiston" oyda bir bor chiqariladigan adabiy, milliy, siyosiy iqtisodiy majmuadir"-deb yozilgan va jurnalning soni, chiqqan yili oy va bosilgan chislosi ko'rsatilgan. Jurnalning shu qismida mundariyasi berilgan. Mundarijada maqola va xabarlar, yirik maqolalardan tashqari she'rlar ham berib borilgan. Xabarlar asosan Turkiston, Kavkaz, Ukraina, sovet Rusiyasi, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston kabi davlat va respublikalarga tegishli bo'lib, ular 1-2 sahifadan ortmagan. Jurnalning deyarli barcha sonlarida Usmon Xo'ja Po'latxo'jayeving tomonidan maqolalar chop etilgan. "Yangi Turkiston" sonlari bilan tanishish asnosida amin bo'lindiki, jurnalning har bir soni 30-32 sahifadan oshmaydi. Ayrim sonlarida 2 ta soni umumlashtirib nashr etilgan. Jurnalning ba'zi bir sonlari 18-20 sahifani tashkil etgani ham aniqlandi. "Yangi Turkiston"ning 16-sonidan boshlab (1930 yil) titul qismida: "Turkiston milliy istiqloli fikrini ifodalaydigan oylik majmua"-deb yozila boshlangan. Jurnalda Mustafo Cho'qay "Turon davlati haqida", "Turkistonda milliy mujodala", "Jallodlar provokatsiyasi", "Mafkura maydonida kurash" kabi yirik maqolalarini chop ettirgan. "Yangi Turkiston"da Abduqodir Inon, Abdulloh Tavakkal, Mahmud Qosim, Boyqaro, Jo'raqori (Surgun), Ahmadjon O'qoy, Mahmud Kozim kabilar maqola va xabarlar bilan ishtirok etishgan. Ijodkor Eltarning maqola va she'rlari jurnalning bir qator sonlaridan joy olgan. Shuningdek, bir qator sonlarida M.K, A.S kabi mualliflar ismi sharifi bosh harflari yoxud muallif nomi to'liq bildirilmagan maqolalar ham mavjud. Usmonxo'ja Po'latxo'jayeving ma'naviy merosi va publitsistikasi haqida fikr yuritilar ekan, uning tomonidan "Yangi Turkiston", "Yosh Turkiston" majmualari va "Yaqin tariximiz (xotiralar, vasiqalar, rasmlar)" nomli majmuada chop etilgan maqolalari, 1936-yilda nashr qilingan "Turkiston" risolasi kabilarni tematik jihatdan bir qator guruhlariga ajratish mumkin.

Usmonxo'ja Po'latxo'jayeving tomonidan yozilgan maqolalar butun Turkiston mintaqasi va Buxoroda kechgan siyosiy jarayonlar, milliy hukumatlar tashkil topishi, qo'shni Afg'oniston bilan munosabatlar, Afg'onistonning yangi tarixi masalalarini qamrab oladi. Uning "Buxoro jumhuriyati", "Buxoro jumhuriyatining tashkil topishi", "Turkiston va Buxoro", "Afg'onistonda taraqqiyot: ingliz va rus raqobati", "Afg'oniston va Turkiston", "Mustaqil Tojikiston Sho'rolar Jumhuriyatining ich yuzi" kabi maqolalar hamda "Turkiston" risolasida [1.32]. Usmon xo'ja O'rta Osiyo va Afg'oniston xalqlari tarixining teran bilimdoni, ushbu mintaqalarda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni zukko va jiddiy kuzatuvchisi ekanligi ayon bo'ladi. Usmon Xo'ja Po'latxo'jayeving maqolalarida 1917-1918-

<sup>1</sup> Andijon Davlat Universiteti Tarix Yo'nalishi 2-Bosqich Magistranti



yillarda Turkistondagi milliy tashkilotlar, milliy matbuot organlari faoliyati kuchayganligi, “Ozodlik!”, “Tenglik!” va “Birlik!” shiorlari ostida taraqqiyparvarlar olib borgan tashviqot-targ‘ibot ishlari haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Xiva xonligi va Buxoro amirligi o‘rnida vujudga kelgan XXSR va BXSRS kabi milliy hukumatlar, ularga nisbatan “Markaz”ning mustamlakachilik siyosatining asl mazmun-mohiyati, oxir-oqibatda bu hukumatlarning qulashi kabilar ochib berilgan. Usmonxo‘ja Turkiston birligi masalasini kun tartibiga qo‘yar ekan, mustaqillikka erishish uchun G‘arbiy, Sharqiy, Janubiy Turkistondagi kuchlarni birlashtirish zarurligini ta‘kidlaydi. Uning “Yangi Turkiston” majmuasida 11 sahifani egallagan “Afg‘onistonda taraqqiyot va ingliz-rus raqobati” maqolasi bilan tanishar ekanmiz, Usmonxo‘jani Afg‘onistonning davlat sifatida tashkil topishidan, 1920-yillarning oxiriga qadar bo‘lgan tarixini teran mushohada bilan tizimli bayon qilinganligiga hamda ushbu davlat ustida Ingliz-Rus raqobati uzoq tarixga borib taqalishi va uning mohiyat, sabablariga aniq dalil va raqamlar asosida baho berilganligiga guvoh bo‘linadi.

Usmonxo‘ja yozishicha, Afg‘oniston davlatiga 1748-yilda Eron hukmdori Nodirshoh qo‘shinining bosh qo‘mondoni Ahmadshoh Durraniy asos solgan XIX asr boshlarida ushbu mamalakat bekliliklarga taqsimlanib, 1826-yilda barakzoylardan Do‘st Muhammad Kobul, Hirot, Qandahor bekliliklarini birlashtirib yangi sulola “barakzoylar” hukmronligiga asos solgan. Ingliz-Rus raqobati natijasida Turkistonga o‘tib 11 yil yashagan Abdurahmon (hukmronligi 1880-1901 yillar) ruslar yordamida Yoqubxon, Ayubxon kabi Afg‘on taxtiga da‘vogar bir qator qarindoshlarini bartaraf etib, taxtni egallagan. Undan so‘ng taxtni uning o‘g‘li Habibullaxon (hukmronligi 1901-1919-yillar) boshqargan. Habibullaxon davrida bir qator islohotlar bo‘lib, dunyoviy bilim, beradigan “Habibiya” (1903-yil), “Harbiya” (1909-yil) maktablari ish boshlagan. Afg‘onistonda 1906-yilda “Yosh afg‘oniylar” harakati vujudga kelib, ushbu harakat boshida Turkiyadan Afg‘onistonga muhojirlikdan qaytgan afg‘on muhojirlari muhim rol o‘ynagan. Mamlakat poytaxti Kobulda oyoq kiyimlari tikadigan fabrika, dastlabki aksionerlik jamiyati tashkil topishi, konstitutsiya(mashrut)chilik harakati vujudga kelgan. Habibullaxon o‘ldirilgandan so‘ng ukasi Inoyatullaxon qisqa vaqt afg‘on taxtni boshqardi. So‘ngra 1919-1928-yillarda Omonullaxon Afg‘oniston amiri bo‘lib, “Yosh afg‘oniylar” hukumatini tuzdi. Afg‘oniston Sharq dunyosida birinchi bo‘lib mustaqillikni qo‘lga kiritdi. Usmon Xo‘ja Bachai Saqoning 10 oylik hukmronligi (1929-yil yanvar – 1929-yil oktyabr), so‘ngra Nodirshoh (1929-1933) hukmronligi boshlanganligi, ushbu hukmdor Do‘st Muhammad avlodlaridan biri ekanligini bayon qilgan. Usmon Xo‘janing Afg‘oniston tarixi bilan bog‘liq maqolalaridagi yuqorida keltirilgan tarixiy dalil va raqamlar ushbu mamlakat tarixi haqida kishiga keng tasavvur beradi. U yozgan maqolalar manbaviy jihatdan boyligi va ishonchli dalillar bilan asoslanganligi uchun bu mamlakat haqida yozilgan tarixiy tadqiqotlardagi ma‘lumotlarga deyarli to‘liq mos keladi. [2.196]. Usmon xo‘ja Po‘latxo‘jayev tomonidan chop ettirilgan “Turkiston” risolasi Turkiston mintaqasining tarixi, uzoq o‘tmishda bu mintaqa bir qator tsivilizatsiyalarga o‘choq bo‘lganligi masalalariga qaratilgan. Risola matnidan ayon bo‘ladiki, uning muallifi Turkiston mintaqasiga kirgan chegaralar, hududlar, yer maydonlari, aholining milliy tarkibi, madaniyati kabilarni atroflicha ochib bera olgan. Aslida ushbu risola 1927-yilda Istanbulda tashkil topgan “Turk genchleri(yoshlari) birligi”ning ta‘sis konferensiyasida qilingan ma‘ruza matni bo‘lib, unga 1936-yilda risola shaklida tartib berilib, qayta nashr etilgan.

O‘zbek va fors tillarida she‘rlar yozgan Usmonxo‘ja badiiy adabiyot tamoyillari, adabiyotshunoslik, she‘riyatdan yaxshi xabardor bo‘lgan. Shu sababli sovetlar tomonidan XX asrning 20-yillaridayoq tanqid va ta‘qib ostiga olingan Cho‘lponning millatparvar g‘oyalarini ma‘qullab, uni qat‘iy himoya qilib chiqqan. Cho‘lpon ijodiga o‘zbek muhojirlaridan Boymirza Hayit ham “Turkistonda o‘ldirilgan turk shoirlari Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Cho‘lpon” maqolasini yozgandi. Ushbu maqolada Usmon Xo‘ja fikrlari ma‘qullangan. Usmonxo‘ja maqolasida ma‘lum bo‘ladiki, u Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon(1897-1938) ijodidan yaxshigina xabardor bo‘lgan.

Usmonxo‘ja va Cho‘lponni bir-biri bilan bog‘laydigan bir qator jihatlar bo‘lgan. Abdulhamid Cho‘lpon ijodida ozodlik, erksevarlik va millatparvarlik g‘oyalari yetakchilik qilganki, bu Usmonxo‘ja istak va orzulari yo‘lidagi kurashlariga ruh va madad bergan. Ikkinchidan, Cho‘lpon 1921-yilning 27-mayidan 1922-yilning 20-martiga qadar 10 oy Buxoroda yashab, “Buxoro axbori” gazetasida muharrirlik qildi. U gazetaning 41-67 sonlariga(1921-yil 30-iyun –1922-yil 25-yanvar –diss...)



muharrirlik qildi. Shuningdek BXSР maorif noziriligida mas'ul hodim vazifasida ishladi. Shu bilan birga u "Nashri maorif" jamiyatining Buxoro bo'limini tuzdi. Cho'lpon Buxoroda yashagan davrda Usmon xo'ja ham muhojirlikka ketgan emasdi, u hukumat rahbari va BXSР MIQ raisi sifatida Cho'lpon bilan uchrashgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Uchinchidan, Cho'lponning 15 dan ortiq she'rlari, jumladan, Usmonxo'ja tahlil etgan taniqli "Xalq" va "Ziyod kamar" kabilar aynan Buxoroda yaratildi. Cho'lponning "Matbuot – kuchlik bir davlatdur", "Hukumat qurultoyi", "Adabiyot kechasi", "Teatr- tamosha", "Ergashish", "Tizgin talash", "Hukumat nashri" kabi tanqidiy-tahliliy publitsistik maqolalari "Buxoro axbori"ning turli sonlarida bosilgandi [3.98]. Bu o'rinda BXSР hukumati a'zolari BXSРda yagona bo'lgan muntazam chiqib turgan birdan-bir umidli matbuotni doimiy kuzatib borganliklarini ham nazardan qochirmaslik kerak.

Usmonxo'ja publitsistikasi va ma'naviy merosining to'rtinchi guruhiga "Turkiston turk ginchleri(yoshlari) Birligi" tashkiloti tuzilganligiga yillar to'lishi, tarixiy sanalar munosabati bilan qilingan hamda "Yangi Turkiston" qatlarida saqlanib qolgan nutqlarini kiritamiz. [4.22] Usmonxo'ja nutqlarida xorijdagi yosh turkistonliklarni va muhojirlarni Turkiston ozodligi va mustaqilligi yo'lida birlashishga da'vat, ajdodlarni va o'zbekona urf-odat, an'analar, o'zbek tilini unutmashga da'vat, Vatanni va millatni sevish kabilarining motivlari yetakchilik qiladi. Shuningdek, ma'naviy yuksak ahloq, qat'iyat va iroda, imon va e'tiqod, ishonch bilan istiqlol uchun kurash olib borish yo'lida ifoda qilingan nutqlar Usmonxo'ja shaxsiyati yuksak ideallarini ifodalaydi.

Usmonxo'ja Po'latxo'jayev xorijda she'rlar ham yaratdi. Uning she'rlari badiiy jihatdan yuksak saviyada bo'lmasada, ularda inson irodasi va qat'iyati, zulm va mustamlakachilikka qarshi nafrat ruhi barq urib turadi. Usmon Xo'janing "Ey tangri" [5.9], "Ol intiqom" [6.28], "Qo'zg'aling, ey Vatan o'g'lonlari [7.403] she'rlari bizgacha yetib kelgan. "Intiqom...Ol intiqom" she'ri Anvar poshoga bag'ishlab yozilgan marsiyadir.

Xulosa qilib aytganda, Usmonxo'ja Po'latxo'jayevning ma'naviy merosi va publitsistik maqolalari, nutq va she'rlari komil insonni tarbiyalashda, yosh avlodda jur'at va jasoratni, istiqlol va Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini kuchaytirishda ruhiy madad beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Osman Kocaoğlu. Buhara Cumhuriyeti. "Yeni Türkistan" (1927-1931), sayı 39 (Eylül 1931); S.1-3; Buhara cumhuriyatining teşekhülü. Ўша сонда. S. 3-11; Osman Носа. Turkisten ve Buhara. Yakın tarihimiz (Hatıralar, besikalar, resimlerle). Cjilt:2, sayı:14,31 maris,1962. S 103-104, Osman Kocaoğlu. Afganistanga terakki ve ingliz ve rus rekabati. Yeni Turkistan. (1927-1931); sayı 22 (haziran 1929). S 1-11. Afganistan ve Turkestan. Sayı 23 (Birinci Teşrin [Ekim] 1929), S 1-3; Mustakıl Teikistan Şüralar cuhuriyatının iç yuzi...sayı 27 (Şubat 1930), S 1-6; Osman Kocaoğlu. Turkistan. Turkistan Türk gençler birliginde verilen konferenslar, Türkistan türk gençler biligi yayını, Osmanbey mataasi, Istanbul. 1936. 32 s.
2. Шомансурова А.Ш., Полякова Й.А., Садриддинова З. идр. Афганистан (вопросы, истории, экономики и филологии). Т: Фан,1978. – 124 стр (с 15-33; с 100-104); История Афганистанье древнейших време до наших дней/ - М: Мысль,1982. – 368 стр.(с.139-224. С.224-241); Очилдиев Д.Я. Младоафганское движение. –Т: Фан,1995. -199 стр; Мир Гулам Мухаммад Гугар. Афганистан на пути истории. – М: Наука, 1987. – 208 стр(с.21-83. с.89-196); Имамов Ш.З. Общественно политический мысль Афганистана в первой трети XX века. – М: Наука,1988. – 196.
3. Сафаров О. Сафарова Х. Чўлпон Бухорода. – Т: Мухаррир.2013. – Б.47-48-49.110-111, Ҳайитов Ж. Абдулхамид Сулаймон Чолпон – эркинлик ва истиқлол учун курашилҳомчиси "Тарихий хотира-маънавиятасоси" Республика илмий-назарий анжуман материаллари. – Бухоро.2014. – Б.96-98.
4. Osman Kocaoğlu. "28 Eylül Münasebetiyle Osman Bey Tarafından İrad Edilen Nutuk", Yeni Türkistan (1927-1931), sayı 14-15 (Eylül 1928), s.9-12; "Yaş Türkistan", Yeni Türkistan (1927-1931), sayı 27, (Şuhbat 1930), s.32; "Beynelmîlel Demokrası Ağır Bir İmtihan Devresi



Geçirmektedir”, Yeni Türkistan (1927-1931), sayı 37-38 (Temmuz-Ağustos 1931), s. 1-4; “Türkistan Türk Gençleri Birliğini Üçüncü Sene-i Devriyesi”, Yeni Türkistan (1927-1931), sayı 29 (Teşrinisani 1930), s. 20-22.

5. “Ey Tanrı [Şırı]”, Yeni Türkistan (1927-1931), sayı 1 (Haziran 1927),s. 8-9.
6. Хайрулла Исмадулла. Чўлпон ва жаҳон//Türkistan’da Yenilik Hareketleri ve İhtiloları. – S.255-256; Ражабов Қ. Хайитов Ш. Усмон Хўжа.- Т: ABU MATBUOT-KONSALT, 2011. – Б.28.
7. “Yakın tarihimiz”, Osman Hoça. Közgolın Sı Vatan Üğlonları. 1963. – S 403.

